

## YANGI O'ZBEKISTONDA TASHABBUSLI BUDGETLASHTIRISHNING JORIY ETILISHI, IQTISODIY MOHIYATI

**Suyundikov Lochinbek Akmaljon o'g'li**  
Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi

**Annotation.** Ushbu maqolada tashabbusli byudjetlashtirish amaliyotini joriy qilish orqali hududlar miqyosida fuqarolarning tashabbuslari inobatga olgan holda byudjet mablag'larining bir qismini aynan shu loyihalarni moliyalashtirish uchun ajratish va bu mablag'larni sarflanish yo'nalishlarini tanlashda bevosita fuqarolarning ishtirokini ta'minlash orqali qarorlarni qabul qilish va qabul qilingan qarorlarning amlaga oshirilish mexanizmi to'g'risida bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** tashabbusli byudjetlashtirish, byudjet mablag'lari, davlat byudjeti, davlat maqsadli jamg'armalari, jamoatchilik fikri.

## ВНЕДРЕНИЕ ИНИЦИАТИВНОГО БЮДЖЕТИРОВАНИЯ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ, ЭКОНОМИЧЕСКАЯ СУТЬ

**Аннотация.** В данной статье путем внедрения практики инициативного бюджетирования с учетом инициатив граждан на региональном уровне выделяется часть бюджетных средств на финансирование этих проектов и обеспечивается непосредственное участие граждан в выборе направлений их расходования, средств и принятия решений. Описан механизм реализации решений.

**Ключевые слова:** инициативное бюджетирование, бюджетные средства, государственный бюджет, государственные целевые фонды, общественное мнение.

## IMPLEMENTATION OF INITIATIVE BUDGETING IN THE NEW UZBEKISTAN, ECONOMIC ESSENCE

**Abstract.** In this article, by introducing the initiative budgeting practice, taking into account the initiatives of citizens at the regional level, allocating a part of the budget funds for the financing of these projects and ensuring the direct participation of citizens in choosing the directions of spending these funds and making decisions. the mechanism of implementation of decisions is described.

**Keywords:** initiative budgeting, budget funds, state budget, state trust funds, public opinion.

Mamlakatimizda milliy iqtisodiyotni rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash sharoitida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar davlat byudjetining asosiy daromad qismini tashkil qiluvchi manba hisoblanadi. Davlat byudjeti daromadlarini shaffofligini ta'minlash va samaradorligini oshirish, byudjet daromadlari bazasini kengaytirish, shuningdek byudjet jarayoni ochiqligini oshirishning yangi mexanizmlarini joriy etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

O'zbekistonda so'nggi yillarga qadar davlat byudjeti ochiqligi va uning ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish haqida gap-so'z bo'lishi ham mumkin emas edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bian amalga oshirgan islohotlar natijasida byudjet ochiqligini ta'minlashga qaratilgan amaliy ishlar qilindi. Bir qator hujjatlar qabul qilindi. Fuqarolar nafaqat davlat byudjeti ustidan nazorat o'rnatmoqda, balki mablag'larni sarflashda ham ishtirok etmoqda. Mamalakatimizda tashabbusli byudjetlashtirish tizimini rivojlanishini uch bosqichga bo'lib o'rganish mumkin:

**Birinchi bosqich:** mamlakatimizda byudjet tizimi ochiqliligi va shaffofligini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo'naliishlaridan biri tegishli hudud mahalliy byudjetidan amalga oshiriladigan harajatlar yo'naliishlarini belgilashda fuqarolar faol ishtirokining ta'minlanishidir. Byudjet ma'lumotlarining ochiqligi va shaffofligini yanada oshirish, byudjet mablag'larining shakllanishi va sarflanishi ustidan parlament va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, hamda 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-avgustdagи «Byudjet ma'lumotlarining ochiqligini va byudjet jarayonida fuqarolarning ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3917-son Qarori muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur Qarorga muvofiq, 2019-yildan boshlab byudjet mablag'larini taqsimlashda fuqarolar ishtirokining tuman (shahar)lar byudjetlari qo'shimcha manbalarining kamida 10 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo'naltirishni nazarda tutadigan mexanizmi joriy etildi.

Shuningdek, ushbu Qaror bilan davlat budgeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari, soliq va byudjet siyosatining asosiy yo'naliishlari loyihalari, davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari ijrosi to'g'risidagi hisobotlar O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga taqdim etilishidan oldin majburiy jamoatchilik muhokamasiga qo'yilishi shartligi belgilandi.

2019-yil 1-yanvaridan jamoatchilik fikrini shakllantirish uchun tuman (shahar)lar byudjetlarining qo'shimcha manbalarini hisobidan moliyalashtirilish taklif etilayotgan

tadbirlar to‘g‘risidagi axborotni joylashtirishni nazarda tutadigan «**Ochiq byudjet**» axborot portali (*openbudget.uz*) ishga tushirildi.

Ochiq budjet – bu fuqarolarning turli darajadagi byudjetlar to‘g‘risida tushunishlari uchun mavjud bo‘lgan ma’lumotlarni shakllantirishga qaratilgan davlat siyosati.

Ta’kidlash joizki, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga tuman (shahar)lar xalq deputatlari Kengashlari tomonidan mahalliy byudjetlar parametrlari va ijrosi haqidagi hisobotlarning ko‘rib chiqilishi va tasdiqlanishi jarayonining ommaviy axborot vositalarida har tomonlama yoritish, hamda tuman (shahar)lar mahalliy byudjetlari qo‘sishimcha manbalaridan kamida 10 foizining Portal orqali jamoatchilik fikri asosida belgilangan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirish majburiyati yuklandi.

Shu tariqa, O‘zbekistonda tashabbusli byudjet jarayonini amalga oshirishning ilk bosqichi 2019-yil 1-yanvardan boshlandi. Ilk bosqich 2019-2020-yillarda amal qilgan bo‘lsa, tashabbusli byudjet jarayonining ikkinchi (takomillashtirilgan) bosqichi 2021-yildan keyingi davrni qamrab oladi.

**Ikkinci bosqich:** xalq bilan ochiq muloqot natijalari asosida tayyorlangan 2017 – 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “**Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili**”da amalga oshirishga oid davlat dasturida 2021-yilda yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash masalalariga alohida e’tibor qaratgan holda har bir hududda bittadan tuman (shahar) byudjetini shakllantirishda xarajatlarning kamida 5 foizini bevosita aholining fikr mulohazalarini inobatga olib, mahalladagi muammolarni hal etishga yo‘naltirish tartibi eksperiment tariqasida joriy etilishi ko‘zda tutilgan.

Qayd etish joizki, 2021-yilda yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash masalalariga alohida e’tibor qaratgan holda har bir hududda bittadan tuman (shahar) byudjetini shakllantirishda xarajatlarning kamida 5 foizini bevosita aholining fikr-mulohazalarini inobatga olib, mahalladagi muammolarni hal etishga yo‘naltirish tartibi eksperiment tariqasida joriy etildi<sup>1</sup>.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevraldaggi «2017 — 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini «**Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili**»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida»gi PF-6155-son Farmoni jrosini ta’minlash, Davlat budgetining shakllanishi va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish loyihalarini ishlab chiqish jarayoniga

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevraldaggi PF-6155-son Farmoni 18-bandi.

aholini faol jalb etish hamda joylardagi dolzarb muammolarni hal etishda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi “Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘sishma chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5072-son qarori qabul qilindi.

Mazkur qarorga muvofiq, 2021-yil may oyidan boshlab respublikaning 14 ta tuman (shahar)larda, 2022-yil 1-yanvardan e’tiboran respublikaning barcha tuman (shahar)larida tegishli byudjetlarning tasdiqlangan umumiylarining 5 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirish bo‘yicha yangi tartibi joriy etildi.

2021-yil 1-iyuldan boshlab jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga ajratiladigan tuman (shahar)lar byudjetlari qo‘sishma mablag‘larining eng kam miqdorini **10 foizdan 30 foizga** oshirish belgilandi.

Qarorga ko‘ra, 2021-yil may oyidan boshlab respublikaning har bir hududidan 1 tadan tuman (shahar)larda, 2022-yil 1-yanvardan e’tiboran respublikaning barcha tuman (shahar)larida tegishli byudjetlarning tasdiqlangan umumiylarining 5 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirish bo‘yicha yangi tartibni bosqichma-bosqich joriy etish belgilandi.

O‘zbekistonda tashabbusli byudjetlashtirish vositalari 2019-yildan tatbiq etildi. Byudjet mablag‘larini taqsimlashda fuqarolarning ishtirok etish mexanizmi tuman (shahar) byudjetlaridagi qo‘sishma daromadning bir qismini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirishni ko‘zda tutadi. 2021-yilda fuqarolarning tashabbuslari uchun ajratiladigan ushbu mablag‘ manbalari sezilarli darajada kengaytirildi va qo‘sishma daromadlarning **10 foizidan 30 foiziga** etkazildi. 2022-yildan boshlab barcha tumanlar (shaharlar)da ushbu maqsadlar uchun tasdiqlangan mahalliy byudjetlar xarajatining **5 foizi** yo‘naltirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek “**Bizning tajribamizda bu ham birinchi marta va juda katta ijobiyligi natija beryapti. Odamlar shu jarayonlarda bevosita o‘zlari ishtirok etmoqda. Eng muhim, odamlar bunday loyihalarga daxldor bo‘lib, bunyod qilingan infratuzilmadan faxrlanib, ularni asrab-avaylab foydalanyapti**”, – degandi davlat rahbari.<sup>1</sup>

**Uchinchi bosqich.** Ma’lumki, 2023-yilning 30-aprel kuni umumxalq referendumi orqali Yangi Konstitutsiya qabul qilindi. Yangilangan Konstitutsiya jamiyatimiz hayotining barcha yo‘nalishlarini kompleks tartibga solish, hamda mamlakatimizni demokratik rivojlantirish yo‘lida eng muhim huquqiy poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Konstitutsiyaga kiritilgan yangi normalar barcha sohalarni taraqqiy ettirishga, shu jumladan, davlat hokimiyatining yanada samarali tashkil qilinishiga yordam beradi.

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “Mahallalarni obod qilish va yashil makon umummilliy loyihasi doirasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan videoselektr” yig‘ilishidagi nutqi.

Konstitutsiyaviy qonun loyihasi bilan amaldagi Konstitutsiyaga **27 ta** yangi modda kiritilib, moddalar soni **128 tadan 155 taga** oshdi. Konstitutsiyamizning amaldagi **275 ta normasi 434 taga** ko‘paydi, ya’ni amaldagi Konstitutsiya **65 foizga** yangilandi.

Yangilangan Konstitutsianing 148-moddasida “O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetini shakllantirish hamda ijro etish tartib-taomillari ochiqlik va shaffoflik prinsiplari asosida amalga oshirilishi, shuningdek fuqarolar va fuqarolik jamiyati institutlari O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining shakllantirilishi, hamda ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishi” kabi yangi norma bilan huquqiy mustahkamlandi.<sup>1</sup>

Tashabbusli byudjetlashtirish jarayoni shaffofligi va ochiqligi to‘liq ta’milanmagan bo‘lib, fuqarolarning tashabbusli loyihalari bo‘yicha sarflanayotgan mablag‘larning maqsadliligi va samaradorligi yetarlicha ta’milanmagan, hamda byudjet mablag‘larining taqsimotida jamoatchilik tomonidan nazorat qilish mexanizmi talab darajada yo‘lga qo‘yilmaganligi kabi holatlar mavjud.

Tashabbusli byudjetlashtirish tushunchasi xususida iqtisodchi olimlar tomonidan turli xil fikrlar va yondashuvlar mavjud bo‘lib, yagona bir ta’rifga kelinmagan. Shuningdek, “**tashabbuli byudjetlashtirish**” tushunchasining ta’rifi iqtisodiy adabiyotlarda va huquqiy asosi Namunaviy Nizomda ham belgilanmagan.

Fikrimizcha, “Tashabbusli budgetlashtirish” – deganda, bu “Fuqarolar va fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan mahalliy ahamiyatidagi masalalarni hal qilishda, byudjetni jamoatchilik fikri asosida shakllantirishga asoslangan holda byudjet mablag‘larini sarflash ob’ektlarini aniqlash va tanlashda, shuningdek tanlangan loyihalarning amalga oshirilishini bevosita fuqarolar ishtirokida nazorat qilish bo‘yicha fuqarolik tashabbusiga asoslangan turli xil amaliyotlar to‘plamidir” deb ta’rif berish maqsadga muvofikdir.

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O‘zbekiston, 2023.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. “O‘zbekiston”, 2014 y. -73 b.
1. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. Rasmiy nashr. – T.: “Adolat”, 2020. – 473 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi: Rasmiy nashr -T.: “Adolat”, 2020. – 156 b
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-iyundagi “Mahalliy byudjetlarni shakllantirishda joylardagi davlat hokimiyati organlarining vakolatlarini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5075-sonli Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 2018-yil 28-dekabr. – Xalq so‘zi gazetasi.
5. “Byudjet ma’lumotlarini ochiqligini va byudjet jarayonida fuqarolarnining faol ishtirokini ta’minalash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-avgust kunidagi PQ 3917-sonli qarori;
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-aprel kunidagi PQ 5072-son “Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minalash bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori;
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni;
8. “Tuman va shahar byudjetlari mablag‘larini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirdarga yo‘naltirish jarayonida fuqarolarning ishtirokini yanada qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-apreldagi PQ-197-sonli qarori;
9. <http://www.gov.uz>- O‘zbekiston Respblikasi hukumati rasmiy sayti).
- 10.<http://www.mf.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti.